

AMIR TEMUR QO‘SHININING HORDIQ UCHUN TO‘XTASHI VA LAGERDA JOYLASHUVI

Mamajonov Soyibjon Halilovich


*Farg‘ona Davlat Universiteti harbiy
ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi, dotsent.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur qo‘shinining hordiq uchun to‘xtashi va lagerda joylashish tartibi xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim muassasalari talabalariga harbiy san‘at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘shinni yig‘ish, lager joy, pozitsiyalar, lagerning qo‘riqlovi, jangovar qo‘riqlov, ilg‘or postlar, soqchilar, markitanatlar, o‘rdagoh, bargoh, miod vaqti, asosiy po‘stlar.*

Amir Temur qo‘shinini yig‘ish to‘g‘risidagi qarori qabul qilganidan keyin va asosan dam olish uchun to‘xtalganda lager joyi tayinlangan, uning atrofini zanjirlar va arqonlar bilan bog‘langan aravalar bilan qo‘shin o‘rab olingan. Transheyalar qazilib, brustverlarning oldida to‘siqlar o‘rnatilgan. G‘anim qo‘shinining paydo bo‘lishi bilan jangchilar o‘z pozitsiyalaridan chiqqanlar va jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlanganlar. Lagerning qo‘riqloviga Amir Temur armiyasida katta e‘tibor qaratilgan. Urush paytida tunash uchun lagerlar barpo qilingan va ular kuchli qo‘riqlangan. O‘zi qo‘shinga qo‘mondonlik qilayotganda to‘satdan bo‘lgan hujumni oldini olish va uni bartaraf qilish uchun 12 000 otliq qo‘shin ajratilib, ular uch mingtadan bo‘linib tomonlarga qo‘yilgan (1-rasm).

Lagerdagi Amir Temur jangchilari xavf xatar yuzaga kelgan paytda okoplarga kirgan, lagerning atrofi xodalardan barpo qilingan devor bilan himoyalangan. Jangovar qo‘riqlov lagerdan 3,5-4 km uzoqlikda joylashib, o‘zidan ilg‘or postlarni jo‘natgan, ular o‘z navbatida soqchilarni ajratgan. Soqchilar bir birlari bilan doimo xabardor bo‘lib turib, g‘anim to‘g‘risidagi barcha axbarotlarni uzluksiz lagerga yetkazib turgan.



1 rasm. Qo‘shinning tunash uchun joylashuvi

Lagerning o‘zida alohida politsiya bo‘lib, u tartibni, markitanatlarni (yurish davomida qo‘shinni kuzatib keluvchilarni), oziq-ovqat mahsulotlarini narxini nazorat qilgan hamda lagerdagi o‘g‘riliklarni oldini olgan. To‘rtta alohida komanda lagerdan tashqaridagi jangchilarning xavfsizligiga mas‘ul bo‘lgan, agar lagerdan 4 farsang masofada kimdir o‘ldirilsa, kimdir yarador qilinsa, bunday jinoyatlar uchun ular javobgar hisoblangan.

Jang oldidan ham jangchilarni yeg‘ish uchun lager joyi tayinlangan. Qo‘shinni yig‘ish to‘g‘risidagi qaror chiqqanidan keyin, jangchilar o‘z oilalari, anjomlari, oziq-

ovqatlari bilan birgalikda belgilangan joyga yetib kelganlar. Lagerning (*o‘rdagohning*) markazida Oliy Bosh Qo‘mondonning stavkasi joylashgan bo‘lib, turli-tuman qismlar va birlashmalarning chodirlari oddiy jangchilarning chodirlaridan tortib yirik harbiy boshliqning chodirigacha bo‘lgan, har bir kishi o‘zining joylashgan joyini juda yaxshi bilgan.

Lagerda Oliy Bosh Qo‘mondonning rangbarang bayroqlar bilan bezatilgan chodiri (*bargoh*) o‘rnatilgan. Ko‘rsatilgan vaqtda (*miod vaqti*) lagerga yetib kelgan jangchilar, joriy etilgan tartibga ko‘ra o‘z joylarini egallaganlar va qo‘shinning ko‘rigiga tayyorgarlik ko‘rganlar.

Kerakli sondagi jangchilar yig‘ilganidan keyin, harbiy lagerda kamonchilar, arbaletchilar, tosh uloqtiruvchilar, nayzachilar, to‘pchilar va boshqalardan tashkil topgan ulkan qo‘shinning ko‘rigi bo‘lgan. Qo‘shinda yonuvchi aralashma (*naft*) solingan xurmachalarni uloqtirish uchun maxsus askarlar bo‘lib, ular o‘t otuvchi orudiyalarning to‘xtovsiz ishlashlarini ta‘minlaganlar.

Oliy Bosh Qo‘mondonning buyrug‘iga ko‘ra jangchilar himoya sovuqlarida, to‘liq qurol-yarog‘lari bilan saflanganlar. Parad o‘tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo‘lgan yashil, qizil, sariq, binafsha, qora, ko‘k bayroqlar hilpirab turgan. Harbiy orkestr sadosi ostida Amir Temur navbatma-navbat jangchilar sherengalari oldidan o‘tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, bo‘lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na‘ra (*suron*) tortganlar.

Jangchilarning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash uchun yurishlar va janglardan oldin harbiy paradning o‘tkazilishi Temuriylar davrida ham an‘ana bo‘lib qoldi. Ko‘rikda nafaqat qo‘shin birlashmalari, balki asosiy kuchlarning ortidan harakatlanadigan ta‘minot aravalari ham ishtirok etgan.

Lagerning atrofi chuqur xandaqlar bilan o‘ralgan va qo‘riqlov zastavalari va postlari bilan puxta qo‘riqlangan. Lagerda o‘rnashgan paytlarda qo‘shin qo‘riqlov xizmatini olib borgan. Qo‘riqlov qismlari lagerdan 5–6 km oldinga chiqqan, undan postlar, postlardan soqchilar ajratilgan va oldinga yuborilgan.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki Amir Temur qo‘shinlari uchun eg‘in joyi yani lagerlar hafsizligi puhta taminlangan. Qo‘riqlovdagi mahsus bo‘linmalar jangchilari o‘z vazifalarini mukammal bilishgan. Mustahkam intizom va lagerda joylashgan qo‘shin tinchligi uchun javobgarlik hissi yuqori savyada bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamajonov, S. (2024). YOUNG PEOPLE PATRIOTISM IN THE SPIRIT EDUCATION TRIPS TO PLACES OF WARRIOR AND LABOR GLORY ORGANIZATION SIGNIFICANCE OF DOING AND CONDUCTING. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH Volume 1, Issue 2 March, 2024 Online ISSN: 3030-3508 <https://spaceknowladge.com>, 72-75.

2. Mamajonov, S. (2024). MORAL FOUNDATIONS OF MILITARY SERVICE AND MORAL EDUCATION IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH Volume 1, Issue 2 March, 2024 Online ISSN: 3030-3508 <https://spaceknowladge.com>, 112-115.

3. Mamajonov, S. (2022). ЁШЛАР ЎРТАСИДА ҒАЙРИИЖТИМОЙ ХУЛҚ-АТВОР ТАРҚАЛИШИГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ХУҚУҚИЙ ЧОРАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Science and innovation*, 1(С6), 323-334.

4. Mamajonov S.H. (2024). AMIR TEMURNING 1391 YILDAGI KONDURCHA DARYOSI BO‘YIDAGI JANGIDA QO‘SHINNI BOSHQARISH TARTIBI. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI Volume 1 Issue 3 04.06.2024 <https://phoenixpublication.uz/>, 356-358.

5. Mamajonov S.H. (2024). AMIR TIMUR'S PROCEDURE FOR ASSEMBLING THE ARMY ON THE EVE OF THE BATTLE ON THE KONDURCHA RIVER IN 1391. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH Volume 1, Issue 3, June, 2024 Online ISSN: 211-214.

6. Uzokov, A. O., Mamadolimov, A. K., & Toshpulatov, A. M. (2021). THE TECHNOLOGIES OF COLLABORATIVE EDUCATION AND ITS COMPONENT EDUCATION DURING THE LESSON. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-5), 50-53.

7. Мамажанов, С. Х. (2022). СЕЛ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 905-909.

8. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. *Интернаука*, (22-3), 64-66.

9. Khoshimov, A., Mamajonov, S., Bahramov, K. (2022). About Valence of the Word in the Uzbek Language. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 2(2), 136-139.